BOSHLANG‘ICH TA’LIM YO‘NALISHIDA XORIJIY TIL O‘QITISHDA INDIVIDUAL YONDASHUVNING SAMARADORLIGI

Abdukadirova Nasiba Alimjanovna
Guliston davlat pedagogika instituti filologiya fakulteti kafedra mudiri
Rustamova Safina Saydullo qizi
Guliston davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’lim tizimida xorijiy tilni, xususan ingliz tilini o‘qitishda individual yondashuvning o‘rni, usullari va samaradorligi tahlil qilinadi. Har bir o‘quvchining individual psixologik va didaktik xususiyatlarini inobatga olgan holda xorijiy tilni o‘rgatish o‘quv jarayonining sifatini oshirishi, o‘quvchining bilimga bo‘lgan qiziqishi va ishtiyoqini kuchaytirishi mumkinligi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: individual yondashuv, xorijiy til, boshlang‘ich ta’lim, til o‘rganish, metodika, differensial yondashuv, o‘yinli texnologiyalar.

Zamonaviy ta’lim jarayonida xorijiy tillarni, ayniqsa ingliz tilini erta yoshdan o‘rgatish masalasi dolzarb bo‘lib bormoqda. Shu bilan birga, bu jarayonda har bir o‘quvchining individual xususiyatlariga e’tibor berish o‘qituvchidan yuqori pedagogik mahorat va metodik tayyorgarlikni talab qiladi. Individual yondashuv - bu o‘quvchilarning yoshi, bilim darajasi, psixologik holati, qiziqishlari, ehtiyojlari va o‘rganish sur’atlarini inobatga olgan holda o‘qitishdir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bir xil darsda qatnashsalar ham, ularning tili o‘rganishga bo‘lgan qobiliyati, faolligi, lug‘at boyligi va xotira darajasi turlicha bo‘lishi mumkin. Shuning uchun bir xil metod bilan barcha o‘quvchilarga bir xil natija kutish noto‘g‘ri bo‘ladi.

Individual yondashuv xorijiy til o‘qitish sifatini oshiradi, chunki bu yondashuv orqali har bir o‘quvchining ehtiyojiga mos yondashiladi. Masalan, ba’zi bolalar eshitish orqali yaxshi o‘rganadi, boshqalari esa ko‘rish yoki harakat (kinestetik) orqali. Shu sababli o‘qituvchi darsda turli xil metodik vositalardan: audiomateriallar, rasmli kartochkalar, harakatli o‘yinlar, dramatik sahnalar va interaktiv mashqlardan foydalanishi zarur. Bunday darslar bolalarda faollikni oshiradi, ishtirokni kuchaytiradi, eng muhimi – tilga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otadi.

Bundan tashqari, individual yondashuvni ta’minlashda differensial topshiriqlardan foydalanish juda muhim. Ya’ni, o‘quvchilarga bilim darajasiga qarab turlicha murakkablikdagi topshiriqlar beriladi. Bu metod kuchli o‘quvchilarni zeriktirmaydi, sustroq o‘quvchilarga esa o‘z tempida ishlash imkonini beradi. Bu orqali o‘quvchilarning o‘ziga ishonchi ortadi, muvaffaqiyat hissi paydo bo‘ladi va bu ularni keyingi bilim olishga undaydi.

Shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun tilni o‘rgatishda o‘yinli metodlar alohida ahamiyatga ega. O‘yin bolalarning tabiiy faoliyati bo‘lib, ular o‘yin orqali ko‘proq bilim oladilar. Shuning uchun xorijiy til darslarini rolli o‘yinlar, interaktiv mashg‘ulotlar, jismoniy faoliyatni o‘z ichiga olgan mashqlar orqali olib borish tavsiya etiladi. Misol uchun, “Simon says” yoki “Touch the color” kabi inglizcha buyruq o‘yinlari nafaqat lug‘at boyligini oshiradi, balki eshitish va tushunish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.

Individual yondashuvni samarali tashkil qilishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ham muhim o‘rin tutadi. Multimedia vositalari, animatsiyalar, mobil ilovalar orqali bolalar mustaqil tarzda yoki kichik guruhda til o‘rganishda faol bo‘ladilar. Shuningdek, til o‘rganishga mo‘ljallangan veb-platformalar (masalan, Duolingo Kids,

Lingokids) orqali har bir o‘quvchi o‘z darajasiga mos materiallarni bajara oladi. Bu holat ham individual yondashuvga xizmat qiladi.

O‘qituvchining asosiy vazifasi - o‘quvchining individual imkoniyatlarini to‘g‘ri aniqlash, tahlil qilish va unga mos metodik strategiyalarni qo‘llashdan iborat. Bu jarayonda o‘qituvchi muntazam ravishda kuzatuv olib borishi, o‘quvchilar portfoliolarini yuritishi, ularga shaxsiy fikr bildirishi lozim. Aynan shunday faoliyat o‘quvchilar bilimini rivojlantiradi, mustaqil fikrlashga, tilni muloqot vositasi sifatida ishlatishga o‘rgatadi.

Boshlang‘ich ta’limda individual yondashuv nafaqat o‘qitish uslubini tanlashda, balki aholash, muloqot va motivatsiya tizimini shakllantirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Ko‘plab xorijiy pedagogik tajribalar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarning til o‘rganishga bo‘lgan munosabati ko‘pincha ularga nisbatan qanday yondashilganiga bog‘liq bo‘ladi.

Masalan, Finlyandiya, Janubiy Koreya, Yaponiya va boshqa rivojlangan davlatlarda boshlang‘ich bosqichda individual yondashuv asosida til o‘rganish ko‘proq guruhlarda emas, balki shaxsga yo‘naltirilgan strategiyalar bilan olib boriladi. Ularda o‘quvchining o‘z-o‘zini baholash, refleksiya qilish (ya’ni o‘rganish jarayonini tahlil qilish) ko‘nikmalari ham dastlabki bosqichlardan boshlab shakllantiriladi. Bu esa bolaning o‘z kuchiga ishonch uyg‘otishiga va til o‘rganishga ijobiy ruhda yondashishiga sabab bo‘ladi.

O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlar, ayniqsa, xorijiy tillarni erta yoshdan o‘qitish siyosati individual yondashuv tamoyillarini joriy qilishga katta imkoniyat yaratmoqda. Prezident qarorlari va vazirlik tavsiyalarida o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish, ko‘p tarmoqli metodlardan foydalanish, baholashda og‘zaki nutq, tinglab tushunish, o‘qish va yozish kabi ko‘nikmalarni alohida rivojlantirish zarurligi ta’kidlanmoqda.

Adabiyotlar:

1. Alimjanovna, Abdukadirova Nasiba. "EFFECTIVENESS OF USING CLIL IN TEACHING SPECIALIZED SUBJECTS TO STUDENTS OF NON-PHILOLOGICAL EDUCATION." 32.
2. Qodirova D.A. “Til o‘rganishda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning nazariy asoslari” – Toshkent: TDPU, 2021.
3. Richards, J.C., & Rodgers, T.S. (2014). Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press.
4. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan, 2020.
5. Karimov, I. A. (1997). Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. T.: Ma’naviyat.
6. G‘ofurov, U. va boshqalar. (2022). Xorijiy til o‘qitish metodikasi. T.: “Fan va texnologiya”.
7. Mavlonova, R. (2019). Ta’lim jarayonida individual yondashuv. T.: “Ilm ziyo”.